

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 11 (67228)
2019-yil 18-mart

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

Navro'z tazonasi

Allegretto $\text{♩} = 100$

Fm Gm7(b9) C7 Fm Gm7(b9) C7

Solist: Fm

f. p.

1. Ko'k-da qu-yosh

Bm Ab Eb C7 Fm

gul-xan yoq-di, Soy-lar ya-na to'-lib oq - di. Chi-qib xa-zon

Bm Ab C7 Fm Bm Db

ko'r-pa-si-dan, Boy-che-chak-lar ku-lib boq-di...

Hamma: Ab Db Bm C7 Fm

2. Ko'n-gil-lar-ga yo-rug' tush-di, Shud-gor-lar-ga u-rug' tush-di.
U-rug'lar-ga jon ba-g'ish-lab Yom-g'ir-lar ham qut-lug' tush-di.

Naqorat: Ab Dm Bm Eb7 Ab7

Nav-ro'z, nav-ro'z, nav-ro'z, Ta-bi-at-ga zar-do'z.

Bm Gm7(b9) C7 Fm Eb7

Ba-hor da-la, dasht-da, Ti-kar go'-zal kash ta... Nav-ro'z, nav-ro'z, nav-ro'z,

C7 Fm Gm7(b9) C7 Fm

Ta-bi-at-ga zar-do'z. Ba-hor da-la, dasht da, Ti-kar go'-zal kash-ta.

Anvar OBIDJON she'ri,
Jumadulla NAZAROV musiqasi

Yakkaxon:

Ko'kda quyosh gulxan yoqdi,
Soylar yana to'lib oqdi.
Chiqib xazon ko'rpasidan,
Boychechaklar kulib boqdi.

Xor: Ko'ngillarga yorug' tushdi,
Shudgorlarga urug' tushdi.
Urug'larga jon bag'ishlab,
Yomg'irlar ham qutlug' tushdi.

Naqorat: Xor: Navro'z, Navro'z, Navro'z!

Tabiatga zardo'z.
Bahor dala-dashtda,
Tikar go'zal kashta.

Yakkaxon:

Qushlar yayrar butoqlarda,
Qo'y-qo'zilar o'tloqlarda.
Elning rizq-u nasibasi,
Tomir otar tuproqlarda.

Xor:

Nurga to'lsin hayotimiz,
Guldek kulsin hayotimiz.
Qand-u asal sumalakdek,
Shirin bo'lsin hayotimiz.

Naqorat:



Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi 259-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchilari ustoz Dilnoza Abdullayeva boshchiligida o'tkazgan «Assalom, Navro'z!» tadbiri barchaga bayram kayfiyatini ulashdi.



**«Men Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'laman!»
Bu har bir iqtidorli, iste'dodli, izlanuvchan qizlarimizning o'z oldiga qo'ygan maqsadi. Ayniqsa, muhtaram Yurtboshimizning taklifiga binoan Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini har bir hududdan 2 nafardan iqtidorli qizlarga berilayotgani ularning ezgu maqsadlariga qanot bag'ishladi, desak, aslo mublag'a bo'lmaydi.**

MUKOFOTNING MAS'ULIYATI

Avvallari Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti 14 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan qizlarimizga berilgan bo'lsa, endilikda 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan qizlarga berilayotgani ularning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Shuningdek, oliy ta'limning bakalavriat bosqichi talabalari mazkur mukofot bilan taqdirlansa, ularga magistratura bosqichiga imtihonlarsiz davlat granti asosida o'qishga kirish imtiyozini beriladi.

Aziz o'quvchilar! Xabaringiz bor, kuni kecha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan bir guruh iqtidorli qizlarimiz a'lo xulqi, noyob iste'dodi, zukkoligi, tashabbuskorligi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari hamda ta'lim, fan, adabiyot, madaniyat, san'at, sport sohalarida va jamoatchilik faoliyatida erishgan yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Mukofotlanganlar orasida Samarqand shahridagi 51-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining 11-«V» sinf o'quvchisi Hilola Rasulovaning ham borligi bizni behad quvontirdi.

Avvalo, Hilola ta'lim olayotgan 51-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi haqida siz gazetxonlarga qisqacha ma'lumot berib o'tmoqchimiz. Barcha ta'lim maskanlari qatori mazkur maktabda ham asosiy e'tibor ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etishga qaratilgan.

Ilg'or pedagogik tajribalarni amaliyotda qo'llash, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tish, o'quvchilarni fan, hunar va sport to'garaklariga jalb qilish orqali maktab jamoasi bir qator yutuqlarga erishib kelmoqda.

Jumladan, ta'lim maskani o'quvchilari har yili o'tkaziladigan «Bilimlar bellashuvi» va «Fan olimpiadalari»ning shahar, viloyat bosqichlarida faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda.

Ushbu bilim dargohi nemis tili o'qituvchilari uchun tayanch maktabi hisoblanadi. Har hafta bu yerda nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Maktabda «PASH» va «ZFA» xorijiy tashkilotlar bilan mustahkam hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan. Bu tashkilotlar tomonidan yuborilgan xorijiy volontyorlar har yili nemis xalqining

tarixi, urf-odatlari va madaniyatini o'quvchilarga o'rgatishga yaqindan yordam berdi.

– Maktabimizning Germaniya davlati bilan hamkorligi va biz uchun



yaratilgan imkoniyatlar nemis tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqimni yanada oshirdi, – deydi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi Hilola Rasulova. – Bugunga qadar ko'plab yutuqlarga erishib kelmoqdaman. Jumladan, 2013–2016-yillar davomida nemis tili bo'yicha «Bilimlar bellashuvi»ning shahar, viloyat va respublika bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritdim. 2016–2018-yillarda esa fan olimpiadasining shahar va viloyat bosqichlarida 1-o'rinni egalladim. Mamlakatimizda ta'lim sohasiga berilayotgan yuksak e'tibor, amalga oshirilayotgan tub islohotlar biz yoshlarga dunyo miqyosida o'z bilim va iqtidorimizni namoyon etishimizga zamin yaratmoqda. 2018-yilda Gyote instituti tomonidan 70 dan ortiq davlatdan kelgan 10–11-sinf o'quvchilari orasida o'tkazilgan nemis tili bo'yicha xalqaro olimpiadada ishtirok etdim va g'oliblikni qo'lga kiritdim.

Germaniya Federativ Respublikasining Frayburg shahrida 2 hafta davomida

143 nafardan ziyod chet ellik tengdoshlarim bilan fikr almashdim, olimpiada davomida tashkil etilgan «Xalqlar do'stligi» tanlovida o'zbek xalqining urf-odatlari, o'ziga xos an'analarini namoyish qildik. Quvonarlisi, nafaqat tengdoshlarimiz, balki ularning ustozlari orasida ham O'zbekistonni yana bir bor ko'rish istagini bildirganlar soni ortdi.

Germaniyaning O'zbekistondagi elchixonasi tomonidan 2017-yil o'tkazilgan «Lesewettbewerb» (Ifodali o'qish) tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritdim.

Mana, bir necha yildirki, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Samarqand viloyati sardorlar Kengashida ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy ishlar yo'nalishi sardori sifatida faoliyat yuritib kelmoqdaman. Faoliyatim davomida ko'plab anjumanlar, festivallar, loyihalar ishtirokchisi bo'ldim. Jumladan, 2018-yil Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani O'zbekiston yoshlar ittifoqi va «Kamalak» bolalar tashkilotining «Vatan, do'stlik va baxtli bolalik uchun» shiori ostida o'tkazilgan Respublika Sardorlari anjumani ishtirokchisi hamda jamoa tarkibida «Eng namunali sardorlar Kengashi» tanlovi g'olibi bo'ldim.

Joriy yilda shaxsan muhtaram Prezidentimizning qo'llaridan Zulfiya



2018-yilda Gyote instituti tomonidan 70 dan ortiq davlatdan kelgan 10–11-sinf o'quvchilari orasida o'tkazilgan nemis tili bo'yicha xalqaro olimpiadada ishtirok etdim va g'oliblikni qo'lga kiritdim.

nomidagi Davlat mukofotini olish baxtiga muyassar bo'lganim menga yanada ilhom bag'ishladi. Bu men uchun nafaqat sharaf, balki bildirilgan yuksak ishonchdir. Bu ishonchni oqlash uchun izlanishdan to'xtamayman, tengdoshlarimga o'rnak bo'lgan holda chin ma'noda Zulfiyaxonimga izdosh bo'laman...

Tengdoshingiz Hilola Germaniyadan kelgan ko'ngillilar tomonidan tashkil etilayotgan loyihalarda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Ayniqsa, maktab qoshida tashkil etilgan «Deutsch mit Spass» to'garagida maktabdoshlariga nemis tilini o'rgatib kelayotganligi tahsinga sazovor.

Biz ham Hilolaxonga o'zi niyat qilganidek, xalqimiz, Yurtboshimizning yuksak ishonchini oqlashini, izlanishdan to'xtamay, tengdoshlariga hamisha o'rnak bo'lishini tilab qolamiz.

Feruza SOYIBJON qizi



«KITOB O'QISHDAN TO'XTAMANG, BOLALARIM!»

Men O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning ijodiga juda qiziqaman.

Ko'pchilik tengdoshlarim kabi adib yashagan xonadon, ijodxonasini ko'rishni orzu qilaman. Yaqinda shu maqsadda sevimli adibimning poytaxtimizdagi «Do'mbirobod» mavzesida joylashgan xonadoniga yo'l oldim...

U yerda yozuvchining turmush o'rtog'i O'lmasxon aya bilan uchrashdim va ularning xotiralariga quloq tutdim.

– O'tkir aka o'quvchilik yillari haqida ko'p so'zlab bergan. Bilasizmi, bir kuni maktablarida rus tili fanidan tadbir o'tkazilganida, Pushkinning she'rini juda ifodali aytib bergan ekan. O'shanda maktab rahbari «Bu bola ajoyib yozuvchi yoki shoir bo'ladi», degan emish. Muallimning bashorati qanchalik to'g'ri chiqqani esa sizga yaxshi ma'lum. Demak, sevimli yozuvchimiz bolalikdanoq iste'dodli bo'lgan. Aslida, u kishining bolaligi urush yillariga to'g'ri kelgan bo'lib, tug'ilgan xonadoni «Dunyo-ning ishlari» qissasining «Oq oydin kechalar» bobida tasvirlangan.

Poytaxtimizning «Xalqlar do'stligi» saroyining yonidagi qadimiy Abulqosimxon madrasasini bilasiz-a? Sevimli yozuvchimiz ana shu madrasani qurdirgan Abulqosimxon eshonning evarasidir.

– **Sevimli asarim «Ikki eshik orasi»ning yaratilishi haqida bilishni juda istardim.**

– 1982-yil chet elga sayohatga borgan edik. Bizga Yozuvchilar ijodiy uyidan joy berishdi. Men bolalarni dengizga aylantirgani olib borardim. Dadasi esa xonadon chiqmay ishlardi. Oradan o'n kunlar o'tdi. Shunda bir qo'lyozmani ko'rdim, sarlavhasi «Ertaga – kuz!» edi. Ammo turmush o'rtog'im yuz betlik bu qo'lyozmani ulotirib, «Bo'lmaydi, sig'mayapti», dedi. Men omon qolgan



Yaqinda O'lmasxon aya Hoshimova Prezidentimiz tomonidan «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlanganini eshitib, juda quvondim.

qog'ozlardagi satrlarni o'qib chiqdim. Oradan uch yil o'tgach, «Ikki eshik orasi» romanidek salmoqli, falsafiy asar yaratilgach, barchasini tushundim.

– **47 yil ona tili va adabiyot fanidan dars bergan ustoz, ulug' adibning turmush o'rtog'i sifatida men kabi yosh ijodkorlarga qanday maslahatlar berasiz?**

– O'tkir aka bitta so'zning muqobilini topish uchun soatlab o'ylardi. Dunyoning sak-kizinchi mo'jizasi adabiyot ekanini ta'kidlagisi kelardi. Chindan ham oq qog'ozdagi qora harflarni o'qiy turib ta'sirlanasiz, dunyoqarashingiz kengayadi, fikringiz o'sadi. Shunday ekan, kitob o'qishdan to'xtamang, aziz nabiralarim!

Ana shu suhbatdan so'ng, O'lmasxon aya va nabiralari bilan do'stlashib qoldim.

Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 202-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Azizbek ABDUMALIKOV suhbatlashdi



MUHAMMAD YUSUFNING NABIRALARI

8-mart tantanalari har yili oilaviy bayramimizga aylanib ketadi. Qizlarim – Ma'suda, Nozima, Madina, nevaralarim – Bilol, Jasmin, Filiz, Islombek, Muzayyana meni yo'qlab kelishganda, ko'nglim osmon qadar yuksaladi.

Bilol Yuridik universitetining 2-bosqich talabasi, Jasmin 9-sinf o'quvchisi. Islombek bilan Filiz 2-sinfda o'qishadi. Muzayyana esa bog'chaga boradi. Buvalari Muhammad Yusufning har bir kitobi nashr etilganda, hammalari kelib menga dastxat yozdirib

olishadi, she'rlarini yod olishadi.

Bu yilgi bayram biz uchun, ayniqsa, o'zgacha bo'ldi. Chunki Prezidentimiz xalq shoirlari, yozuvchilarining umr yo'ldoshlarini yuksak unvonlar bilan taqdirladilar.

8-mart bayrami tantanalari bilan so'ng uyga qaytganimda farzand-

larim, nevaralarim meni qurshab olishdi. Kichikintoylarim birinchi bo'lib so'roqqa tutishdi:

– O'yijon, bu qanaqa mukofot?

– Bu orden, bolam, – deyman faxrlanib. Ikkinchisi gapga qo'shiladi. – O'yijon, men sizni televizorda ko'rdim. Shavkat bobom siz bilan ko'p gaplashdilar. Nimalarni gapirdilar?

Men ularga biroz mubolag'a bilan javob beraman:

– Islombek bilan Filiz a'lo baholarga o'qib, yaxshi bola

bo'lsa, ularga ham orden beraman, dedilar.

Islombek xursand bo'lib osmonga sakraydi. Qiz bola donoroq bo'ladi-da, Filiz qizim unga javoban:

– Aka (akasi undan 4 kunlik katta) kichkina bolalarga orden berilmaydi, – deydi bilag'onlik qilib.

Islombekning ko'nglini cho'ktirmaslik uchun katta bo'lganingda, albatta, beradilar ordenni, deyman.

Bolalar biri olib-biri qo'yib ordenni qo'llariga oladilar, tomosha qiladilar. Yana ketma-ket savollar yog'diradilar. 8-mart bayramiga atab tayyorlagan sovg'alari – o'zlari yasagan gul, chizgan suratlarini taqdim etib, mendan mulozamat kutadilar. Men ularni o'pib, bag'rimga bosaman.

Nevaralarim buvalarining televizorda chiqishlarini intiqlik bilan kutadilar. Hali

kichik yoshidan buvasining suratlarini o'pib, yig'lab o'tirgan Islombegimni ko'rib, juda ta'sirlanganman. Bir kuni u menga bolalarcha savol bergan:

– O'yijon, dodam 1 oyda hech bo'limganda bir marta kelib tursalar bo'lmaydimi? Nega hech kelmaydilar? Katta bo'lsam, men ham she'rlar yozaman, – dedi u bir kuni hayratimni oshirib. Muhammad Yusufning nabiralari mana shunday orzular, intilishlar bilan yashaydilar...

Nazira as-SALOM, «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni sohibasi

Ko'kka boqma,
Ko'pga boq.

Tong
yulduzi

Ahmadjon xursand bo'ldi

Mustaqil Vatanimiz har sohada yuksak
marralarni zabt etib, dunyo ahlini lol
qoldirmoqda.



Ayniqsa, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vatanimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibori biz ziyolilarni yanada ko'proq izlanishga, o'z ustimizda mehnat qilishga undamoqda.

Maktabimiz mikrohududida nogironligi tufayli darslarga qatnashish imkoniyati yo'q bolalar yakka tartibda uyda ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb etilgan. Ana shunday o'quvchilardan Ahmadjon Abdumannopovga boshlang'ich sinf o'qituvchilari birlashtirilgan.

Yaqinda to'g'arak mashg'ulotlari va turli tadbirlarga uyda ta'lim olayotgan o'quvchilar hamda ota-onalari ham taklif etildi. Mashg'ulotlarda o'rtoqlari bilan birga turli o'yinchoqlar yasagan Ahmadjon Abdumannopovning quvonchi bir olam edi. Sinf xonasida tengdoshlari bilan imkon darajasida dars tayyorlash va birga o'yinlarda ishtirok etish unga o'zgacha quvonch, ko'tarinkilik, ruhiy ozuqa baxsh etdi. Quvonarlisi, sinf o'quvchilari va maktab rahbariyati tomonidan Ahmadjonga kitoblari, turli o'quv qurollari sovg'a qilindi. Bu yuksak e'tibordan o'quvchi va uning onasining boshi ko'kka yetdi.

Gavharoy ABDULLAYEVA,
Fayzilaxton YO'LDOSHEVA,
Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi
5-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf
o'qituvchilari

MUALLIF BILAN UCHRASHUV

Nur, ziyoga kon o'zing,
Do'st-u qadrdon o'zing.
Ma'no to'la har so'zing,
Kitobim, jon kitobim!

Sevimli bolalar shoiri Dilshod
Rajabning bu
she'rini «O'qish»

opa Ahmedovaning tashkilotchiligi tufayli ana shunday ajoyib uchrashuv guvohiga aylanishdi. «Kitob – qalb ziyosi» nomli tad-

sevimli shoirlarining «Tandirga hazil», «Piyolaning hazili» kabi masallarini sahna ko'rinishlari orqali yig'ilganlarga namoyish etdi.



kitobida o'qib, allaqachon yodlab olgansiz, shundaymi? Ammo muallif bilan uchrashib, uning hazilomuz masallari-yu turli mavzudagi she'rlarini o'zidan eshitganmisiz?

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 300-DIUMning 1-«F» sinf o'quvchilari ustozlari Tamara

birda bolajonlar shoir Dilshod Rajab va yozuvchi Shukurillo Abdullayevning ijodlaridan bahramand bo'lishdi. Shundan so'ng bolalar, «Ana endi bizning mahoratimizni ham bir ko'ring», deya

Jajji san'atkorlarning chiqishlaridan mamnun bo'lgan ijodkorlar ularga doim kitoblari bilan do'st bo'lishni tayinlab, xayrlashishdi.

QIZLARXON

BILIMLAR BEKATI



Aziz o'quvchilar! Bar-changiz o'z bilimingizni sinovdan o'tkazishni, turli bellashuvlarni juda yaxshi ko'rasiz-a?

Siz kabi tirishqoq va zukko o'quvchilarimning bilimlarini mustahkamlash maqsadida ajoyib tadbir tashkillashtirdim. Maktabimiz binosidagi yo'laklarda ramziy bilimlar bekatini joriy qildim. Har bir bekatda 5-sinf o'quvchilaridan iborat guruh ishtirokchilariga turli savol va topshiriqlar tayyorlangan edi. Kim ularni a'lo darajada bajarib manzilga yetsa, g'olib deb topildi. Bellashuv yakunida 5-«A» sinf o'quvchilaridan iborat guruh birinchilikni qo'lga kiritdi. O'yin tarzidagi bu sinovlar o'quvchilarimga juda manzur bo'ldi. Men esa ularning manzil tomon faollik bilan intilganlarini ko'rib, ich-ichimdan sevindim.

Dilafro'z ISMOILOVA,

Toshkent viloyati, Angren shahridagi 17-umumta'lim
maktabining o'zbek tili fani o'qituvchisi

MAKTABDAGI BELLASHUV

Bayramona bezatilgan maktab binosiga kirgan o'quvchilar bugungi bo'lib o'tadigan tadbirga sidqidildan tayyorlana boshlashdi. Bir tomonda ustozlar, yana bir tomonda maktab yetakchisi-yu o'quvchilar - bularning bari tadbirni ko'ngildagidek o'tkazish maqsadida yelib-yugurishardi. Axir bu maktabning o'qituvchilari keladigan mehmonlarda yaxshi taassurot qoldirishi, qolaversa, tanlovda munosib o'rinni ham egallashlari kerak-da.

Samarqand viloyati, Tayloq tumanidagi barcha umumta'lim maktablari-da O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tomonidan tashkil etilgan «Eng namunali sardorlar Kengashi» tanlovining maktab bosqichida ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi.

Tanlovda 1-7-sinflarning «Kamalak», 8-11-sinflarning «Ittifoq» guruhlarining sardorlari faol ishtirok etdi. Jumladan, tumanning 14-umumta'lim maktabida ham tashkil etilgan «Eng namunali sardorlar Kengashi»ning maktab

bosqichida «Kamalak» sardorlaridan 6-sinfning «Bilimdon», «Ittifoq» sardorlaridan «Matonat» guruhi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Qiziqarli kechgan bellashuvni maktab boshlang'ich tashkilotining yoshlar yetakchisi Xushnuda Ahmedova olib bordi. Tanlovda g'olib bo'lgan o'quvchilar tuman Kengashining faxriy yorlig'i bilan taqdirlandilar.

Ozoda TURSUNBOYEVA

USTOZLARNI QADRLAYLIK!

Men sevimli fanim ingliz tilidan bizga saboq berayotgan va sinfimiz rahbari Gulmira Ahmadaliyevani juda yaxshi ko'raman.

Ustozning mehribonliklari va muloyim so'zlashlari meni o'ziga rom etadi. Ingliz tilida tushunmay qolgan har bir mavzu va hatto bittagina so'zni ham hijjalab tushuntiradi. Aslida, muallimlar bizni bilimli bo'lishimiz uchun mehnat qilishadi. Ular tufayli kelajakda biz katta marralarga yetishamiz. Shu bois, barcha tengdoshlarim bu ulug' zotlarni qadrlashlarini juda istayman! Fursatdan foydalanib, hurmatli ustozlarimni Navro'z bayrami bilan tabriklayman!

Azizbek SOLIJONOV,
Farg'ona viloyati, Quvasoy shahridagi
1-DIUMning 7-«A» sinf o'quvchisi

Shu desangiz, darsliklardagi she'rlarni yodlayverib o'zim ham she'riyatga qiziqib qoldim. Birdan sevimli kitobimiz «Sehrli qalpoqcha»dagi Hoshimjon kabi ilhomim kelib ketadi. Ammo men «Qo'fiya bozori qayda?» deya bozorga borilmasligini yaxshi bilaman.

GAZETA BILAN DO'STLASHIB OLDIM



menda ham ijodkorlikka qiziqish uyg'ongan bo'lsa, ajab emas. Bu yo'lda yaqindan ko'makchi bo'lib, meni doimo qo'llovchi «Tong yulduzi» gazetasi bilan do'stlashib olganim zo'r bo'ldi-da!

Yaqinda onam meni «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatiga olib bordi. U yerda «Uch do'stlar», «Yomg'ir», «Onajon» kabi ilk qoralamalarni o'qib berdim.

Onamning aytishlaricha, buvajonim Hamidulla Yoqubov bolalar shoiri bo'lgan ekan. Shu bois,

Kimdir maktabimizda e'lon qilingan tanlovda g'olib bo'lish uchun varrak yasamoqda, yana kimdir ta'lim maskanimiz hovlisini ko'kalamzorlashtirish ish-

lari bilan band. Ustoz Dilshoda Davlatova rahbarlik qilayotgan sinfimiz juda ahil. Men ingliz tili fani ustozim Shahnoza Otajonovadan «Navro'z» haqidagi she'rimni ingliz tilida yod olishni o'rganyapman.

Quvonarlisi, ta'lim muassasamiz bu yil tahririyat tomonidan e'lon qilingan tanlovning «Eng ko'p o'quvchilar obuna bo'lgan maktab» nominatsiyasida 1-o'rinni egalladi. Bizga tashakkurnoma berish uchun tahririyat xodimlari maktabimizga tashrif buyurdi. Maktabning faollar zalida ular bilan bo'lgan uchrashuv nihoyatda qiziqarli va mazmunli o'tdi.

Gulmira HUSANBOYEVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
44-umumta'lim maktabining
4-«B» sinf o'quvchisi

Asalxon RAVSHANOVA,
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 3-«B» sinf o'quvchisi

Eng maqbul fazilat Vatanga va odamzodga ko'rsatilgan xizmatdir.

J. DELIL

«ENG FAOL MAKTAB» BO'LDIK

Men so'lim Rapqon qishlog'idagi maktabda o'qiyman. Qishlog'imiz va maktabimiz juda chiroyli. Shu kunlarda Navro'z bayramini munosib kutib olishga tayyorgarlik ko'ryapmiz.



Lesson 11

HAPPY NAVRUZ

In my heart you are the mirthful ray
You are the caring, thought my companions they
Happy is the world with the Navruz and with the Eid
You are both my Eid and my Navruz today.
Mawlana Jalaluddin RUMI

WHO IS HE?

Read the definitions and guess who is he.

He begins his day with his small tools to clean his patient's teeth. After all the teeth are cleaned he gives them a toothbrush.



He reads a story to pupils and discuss it. He corrects some papers and prepare to the next lesson.



He takes on his white coat. He helps to ill people and recommend them necessary medicine.



TWO MEANING WORDS

Improve your English with two meaning words.

nail – tirnoq, mix
aid – yordam, xayriya
bear – ayiq, suyab turmoq
blue – g'amgin, moviy rang
can – konserva bankasi, modal fe'l
fall – kuz fasli, yiqilmoq
head – bosh (tana qismi), head for – biror tarafga harakatlanmoq



Ma'mura G'ULOMOVA

USED TO AND WOULD

Used to and would are both use to describe something that happened regularly in the past but doesn't happen any longer.

There are some differences between **used to** and **would**. The first one is that would should not be used unless it has already been established that the time frame is in the past, while **used to** does not require this.

The second difference between **used to** and **would** is not used with stative verb such as **like, feel, understand...**

The use of **would** is more restricted than that of **used to**. Therefore, if you are not sure which one to use, it is best to choose **used to**.

Choose the right form

- After his football match, Bobur **would/used to** often come home exhausted.
- You **would/used to** like him... But now I hate him.
- Davron remember they **would/used to** go fishing every day when he was young.
- My friends **would/used to** often help me to do housework. They still do sometimes.



- Nozima **would/used to** be very good tennis player, until he broke her ankle.

6. We **would/used to** swim in this river. Unfortunately, now it is forbidden.

7. When I was I a child, we **would/used to** have a dog.

8. Did you **would/used to** like playing football at school.



Muhammadsharif FAYZULLAYEV

QUTLAYMIZ!

Har yili 20-mart sanasini tahririyatimiz xodimlari o'zgacha quvonch bilan qarshi oladi. Boisi, shu kuni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, «Tong yulduzi» gazetasi bo'lim muharriri, el sevgan shoir AXTAM-QULNING tavallud topgan kunlari.

Fursatdan foydalanib, ustoz ijodkorini 55 yoshga to'lishi munosabati bilan ko'p ming sonli gazetamiz muxlislari va «Tong yulduzi» jamoasi nomidan samimiy muborakbod etamiz.



BAHOR MENI

QUTLASHGA KELDI

Quyosh, qaynoq mehriingni tuydim,
Hayot, seni onamdek suydim,
Lolalarning taftidan kuydim,
Bahor meni qutlashga keldi.

Yalpiz suvga aytdi tushini,
Unga berdim ko'ngil qushini,
Bolam, qara taqdir ishini,
Bahor meni qutlashga keldi.

Gulni o'pib, yuzin namladim,
Yonog'idan sog'inch jamladim,
Ko'zlarimda g'azal damladim,
Bahor meni qutlashga keldi.

Unutmayman yigirmanchi mart,
Onam uchun keltirgandim dard,
Shu kunni deb quvonmog'im shart,
Bahor meni qutlashga keldi.

Yo'llaringga gul sochar o'rik,
Anglamayman bu qanday ko'rik,
Bolariga bo'libman sherik,
Bahor meni qutlashga keldi.

Andaliblar tongda aytdi roz,
Bormi bundan ortiqcha e'zoz?
Yuragimni chechakzorga yoz,
Bahor meni qutlashga keldi...

Tuni bilan dillashgan dalam,
Sen aqlimdan ozdirgan qalam,
Kulbangga o't qo'yarman alam,
Bahor meni qutlashga keldi...

YURAGIM GULLAGAN CHOG'IDA

Hali men cho'qqiga chiqaman,
Yulduzlar sochilar poyimga.
Quyoshni kaftimda tutaman,
Ko'nglimni yozaman Oyimga.

Otamning bitmagan dostonin,
Hayqirib aytaman dunyoga.
Umrimni oqizib qo'ymayman,
Javobsiz yugurgan daryoga.

Daralar dardimni biladi,
Boshimda charx urar osmonim.
Buloqlar qiqirlab kuladi,
Quvonchga to'ladi ayvonim.

Kiyiklar tizilib yuradi,
Bobomning ming yillik bog'ida.
Daftarim she'r bilan to'ladi,
Yuragim gullagan chog'ida.

Hali men oftozni yetaklab,
Chiqaman cho'qqilar boshiga.
Ishqimni so'rovsiz yozaman,
Vatanning har bitta toshiga.

TUTAR TURFA GULLARIN

Tog'lar ham shoddir bugun,
Ko'nglim topgan kamoldan.
Yurtga bahor kelganin,
Sezdim issiq shamoldan.

Sho'x irmoqlar qo'shilib,
Jo'sh urib oqar anhor.
Qish sovuq'in haydab pok,
O'lkamga keldi bahor.

Didli, u bilar ko'ngil,
Olishning ko'p yo'llarin.
Odamzodni ardoqlab,
Tutar turfa gullarin.

**Durdona ABDOUQAHOROVA,
TDPU akademik litseyining
1-bosqich o'quvchisi**

KO'KLAMOY

Ko'klamoy gulbahorim,
Yashnatadi har doim.
O'rik va gilos qiyg'os,
Yashnatadi gulbog'im.

Chuchmoma va yalpizlar,
Terib yugurar qizlar.
Ko'k somsa-yu ko'k barak,
Bahordan berar darak.



**Shodiya SOLIYEVA,
Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi
5-umumta'lim maktabining 3-«B» sinf o'quvchisi**

Obod mahallaning obod ko'chasida obod bir hovli bor ekan. Ana shu uyda Robiyaxon ismli chaqqon, ziyrak va aqlli bir qizcha ham yasharkan. Onasi qizchani chiroyli sochlarini har kuni tarab qo'yar, dilbandiga turli qiziqarli ertaklar so'zlab berardi. Bir gal katta toshni yorib chiqqan qizaloq haqidagi «Yoriltosh» ertagini aytib berganida, Robiyaxon rosa hayajonlangan ekan. Chunki u cho'pchaklarni bola qalbi bilan tinglar ekan-da.

Kunlar ketidan oylar, oylar ketidan esa yillar o'tib, Robiyaxon maktabga boradigan yoshga yetibdi. Bir kuni kutilmaganda uning keksa buvijonisi ko'zi ojiz bo'lib qolibdi. Tabiblar dorilar surishibdi, ammo foydasi bo'lmabdi. Qizcha har kuni Yaratganga yolvorib duo qilibdi. Yo'q, baribir ko'zi ochilmabdi.

Shunday kunlarning birida Robiya dugonasi Hafizaxonlarnikida televizor tomosha qilib o'tirsa, bir ayol o'sma haqida foydali maslahatlarni aytib qolibdi. Uning «O'sma suvini siqib, mahalladagi ko'zi ojizlarning qoshiga surtdim, shifo bo'ldi», degan gapidan qizaloq to'lqinlanib ketibdi. U shartta o'midan turib, «Men ham o'sma ekan», deya shoshib chiqib ketibdi.

Shu ko'chada hamisha qulog'iga sirg'a taqib yuradigan bir keksa buvijon bor ekan. Robiya undan maslahat olmoqchi bo'libdi.

– Xolajon, men o'sma ekmoqchiman, katta bo'lsa, bargini siqib, suvidan buvijonimning qoshlariga suraman. Ularning ko'zlarini ko'rmay qoldi. Shu bois, buvimni davolamoqchiman, – debdi.

Keksaxonaxon uni ekish uchun avval urug' kerakligini, urug'ni esa qo'shnidan olishi mumkinligini aytibdi. Robiyaxon qo'shninikiga kirib, urug' so'rabdi. Qo'shni ayol oqila ekan, «O'smani nima qilmoqchisan?» deya qizchani savolga tutibdi.

– Suvidan buvijonimning qoshiga qo'yib, ko'zlarini davolayman, – debdi.

Shundan so'ng, oqila ayol Robiyaxonning qo'lga bir hovuch o'sma urug'ini tutqazibdi va uni qanday ekish, qanday parvarish qilish kerakligini tushuntiribdi.

Qizcha urug'ni bag'riga bosganicha uyiga shoshibdi. Darrov bir parcha yerni yumshatib, urug'ni sepibdi. Robiyaxon har kuni qo'shni ayolning yoniga chiqib be-



FASLLAR XISLATI

Gullarin har yon sochib,
Kirib keldi Bahoroy.
Quyoshning yuzin ochib,
Kulib keldi Bahoroy.

So'ngra keldi issiq yoz,
Mevalar ham pishdi soz.
O'rik, nok, qovun, olma,
Foydadan quruq qolma.

Keldi bizlar kutgan kuz,
Mevalar ham deydi «uz».
To'kin-sochin ko'p g'alla,
Aytar onalar alla.

Keldi bo'ron, oppoq qor,
Atrofning chiroyi bor.
Ajib tusda keldi qish,
Mehmon bo'lib keldi qish.

**Xonzodabegim BEKMURODOVA,
poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek
tumanidagi 256-umumta'lim mak-
tabining 5-«A» sinf o'quvchisi**

**Xudoyberdi TO'XTABOYEV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi**

halovat bo'lar, «O'smam qachon unib chiqadi?» deya ularni savolga tutar ekan.

– Endi nima qilay? – deb so'ramish.

– Suv purkagichda sug'orgin, – der ekan qo'shni ayol. Oradan ko'p vaqt o'tmay, urug'lar maysaga aylanibdi.

– Endi-chi? – deb yana so'rabdi Robiyaxon hayajonlanganicha.

– Endi chumchuq cho'qib ketmasligi uchun ustiga shoxcha tashlab qo'ygin, – debdi qo'shni ayol.

Qizaloqning nazarida vaqt juda sekin o'tar, o'smalari o'smayotgandek tuyulavermish. Axiyri o'smalar bargga aylanibdi. Shundan so'ng, o'zida yo'q xursand bo'lib, qo'shninikiga chopibdi.

– Endi-chi, endi nima qilay? – deya so'rabdi entikib.

– O'smaning katta barglaridan terib, soya-salqin joyda biroz saqlagin. So'ng, piyolani to'ng'itib, orqasiga o'sma suvini siqqin va shu bilan buvijonningni davolagin, – debdi qo'shni ayol.

Xursand bo'lib ketgan Robiyaxon o'smalarning bargidan olib, bir emas, uchta piyolaning orqasiga uning suvlaridan chiqaribdi. Bu paytda hamma gapdan xabaridor bo'lib ulgurgan buvijonisi unga turli savollar beramish.

– Bolam, nimalar qilyapsan? Nega shoshasan? – derkan buvisi.

– Ko'zingizni davolashga osmondan shifo kelayapti, – debdi Robiyaxon.

Nihoyat, qizaloq gugurt cho'piga yumshoq paxta o'rab, buvijonining qoshlariga o'sma suribdi.

Yettinchi kunga yetganda buvijonisi to'satdan:

– Robiya qizim! Men seni ko'rayapman, – deb qichqirib yuboribdi. Uydan qizchani onasi, ikkita singlisi birin-ketin otilib chiqishibdi. Buvijon ularni ham darrov tanibdi.

Qisqa vaqt ichida ushbu obod uyda bo'lgan g'aroyib voqea butun mahallaga tarqalib ketibdi. Bir donishmandan, buning siri nimada, deb so'rashsa, ular «O'sha o'smaning suvida Robiyaxonning mehri bor edi. Mehri kishilar Yaratganga shifo tilab iltijo qilsa, ularning duosi, albatta, ijobat bo'ladi», debdi.

Ana o'shandan buyon mana shu obod mahallada o'sma urug'ini so'ragan qizaloqlar ham ko'payib ketibdi.

(Davomi bor)

O'SMA QO'YGAN QIZALOQ

(Ertak)



O'tgan hafta AQSHning Las-Vegas shahrida og'ir atletika bo'yicha o'smirlar o'rtasida jahon chempionati bo'lib o'tdi. Quvonarlisi, musobaqada o'zbek sportchilari muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

O'ZBEK QIZI DUNYO REKORDINI O'RNATDI

Jumladan, qizlar o'rtasida -49 kg vazn toifasida ishtirok etgan Nigora Abdullayeva dast ko'tarishda 75 kg, siltab ko'tarishda 90 kg va umumiy hisobda 165 kg natija qayd etdi. Ishtirokchilarning hech biri yurtdoshimizning bu natijalarini yaxshilay olmadi va Nigora musobaqaning mutlaq chempioniga aylandi. Ikkinchi o'rinni Valentina Kambei (Ruminiya), uchinchi o'rinni esa amerikalik Kayya Braynt egalladi. E'tiborlisi, o'zbek og'ir atletika sporti tarixida hali bunday g'alaba qo'lga kiritilmagan edi. Aytish mumkinki, Nigora ushbu olamshumul yutug'i xalqimiz uchun Navro'z bayramiga ajoyib sovg'a bo'ldi.

Shuningdek, qizlar o'rtasida -64 kilogramm vazn toifasida supachaga chiqqan Kumushxon Fayzullayeva turnirda shohsupaning eng

yuqori pog'onasidan joy egallabgina qolmay, o'smirlar o'rtasida jahon rekordlarini ham o'rnatdi. Vakilimiz

dast ko'tarish mashqida 93 kg, siltab ko'tarish mashqida esa 122 kg natija qayd etdi. Ikki kurashda 215 kilogramm jamg'ara olgan sportchimiz ushbu vazn toifasining siltab ko'tarish va ikki kurash yo'nalishlari bo'yicha o'smirlar o'rtasida jahon rekordlarini o'rnatdi. Ushbu yo'nalishda meksikalik Keysi Roxas ikkinchi, ruminiyalik Mixaela Ilie uchinchi o'rinni zabt etdi.

Eslatib o'tamiz, Kumushxon o'tgan yili yozda poytaxtimiz mezbonlik qilgan yoshlar o'rtasidagi jahon chempionatida ham muvaffaqiyatli ishtirok etib, o'zbekistonlik og'ir atletikachi qizlar orasida ilk bor chempionlikni qo'lga kiritgan sportchiga aylangan. Shuningdek, 2018-yil oktabr oyida Argentinada o'tgan o'smirlar Olimpiadasida ham unga teng keladigan raqib topilmagan edi.



TENNISCHILARIMIZ TENGSIZ

Qozog'istonning Chimkent shahrida stol tennisi bo'yicha kattalar va yoshlar o'rtasida xalqaro turnir o'tkazildi.

Musobaqada dunyoning 7 mamlakatidan kelgan yuzga yaqin stol tennischilar yakka va juftlik bahslarida o'zaro raqobatlashdi.




Quvonarlisi, unda o'zbek sportchilari ajoyib natijalarni qayd etdi. Jumladan, musobaqaning kattalar o'rtasidagi bahslarida Rozalina Xo'jayeva barcha raqiblarini mag'lubiyatga uchratib, oltin medalni qo'lga kiritdi. Yoshlar o'rtasida esa So'g'diyona Madaliyeva ham shohsupaga ko'tarildi.

Sa'dullo TURSUNOV

RAHMAT SIZGA, QO'SHNILAR!

Dam olish kuni edi. Ertalab ko'k somsa pishirish maqsadida oshxonaga kirgan ham edimki, tashqaridan pastki qavatdagi qo'shnilarning baqir-chaqiri eshitilib qoldi. Oynani ochib qarasam, qo'shni Mukarram opa yana bir yoshgina qo'shnimizga nimalarnidir tushuntirish bilan band edi.

Ishlarimni tugatgach, pastga tushib, yerni yumshatib, daraxtlarni oqlayotgan Mukarram opa va Sveta xoladan boyagi dilxiralik sababini so'radim.



– Ko'rmaysizmi, – dedi qo'shni opa daraxt oqlayotib, – yoshgina ayol, ertadan kechgacha o'ziga o'xshash ikki-uch bekorchini topib, pista chaqib turguncha, qani endi bolalariga gullarni uzmaslikni o'rgatishsa, uyimiz atrofini tozalashga ko'maklashishsa. Mana, qarang, ikki-uch farzandi endigina ochilgan binafshalarni uzib, yerga tashlashgan. Shundan xafa bo'laman-da...

Mukarram opa va Sveta xola bilan qo'shni bo'lganimizga 25 yil bo'lyapti. Bu ikki qo'shni-

ning ota-onasi bir paytlar yarim sotix chiqmaydigan tomorqani tosh-u shag'allardan tozalab, yerni o'g'itlab, yong'oq, anjir, gilos, olcha, o'rik, olma, behi kabi turli mevali daraxtlar ekan. Bu daraxtlar biz yashayotgan hududga o'zgacha ko'rk bag'ishlaydi. Ularning hosilini aytmaysizmi?! Mevalar pishsa, albatta, qo'shnilarga ilinshadi. Hatto, «Murabbo qilib olinglar», deya bot-bot eslatishadi. Shuningdek, maydonchani bo'sh qolgan joylariga gullar, rayhon, kashnich, shivit kabi ko'katlar ekib, parvarishlaydi. «Rayhon-u qalampirlardan salatga, moshxo'rda va mastavaga solishga uzib olinglar, faqat daraxt shoxlarini sindirmasangiz, atrof-muhitni ifloslantirmasangiz bo'lgani», deyishdan charchamaydi.

Ana shu qo'shnilarning sa'y-harakati bilan ko'p qavatli uyda yashovchi barcha xonadon egalari tozalikka e'tibor qaratishar, mehmonga kelganlar uyimiz atrofidagi sarishtalikni ko'rib, sevinishardi. Eng muhimi, ular tufayli tabiatga muhabbat uyg'ondi. Farzandlarimiz bolaligidan oppoq gullagan o'rik, gilos, olcha, olma, behi daraxtlari iforini tuyib, ulg'ayishdi. Qolaversa, gullarga ozor bermaslikni, o'zi yashayotgan joyni obod qilishni o'rganishdi.

Shu kunlarda yurtimizda bahor nafasi kezmoqda. 85 yoshni qarshilayotgan Sveta xola va 70 yoshga kirgan Mukarram opalar hamon mo'jazzgina tomorqada insonlarga go'zallik, rizq ulashish uchun tinmay mehnat qilishmoqda.

Aziz o'quvchilar, siz yashayotgan shahar-u qishloqda ham Mukarram opa va Sveta xolaga o'xshagan mehribon insonlar bormi? Agar bo'lsa, albatta, ular haqida bizga yozib yuboring.

Nodira NAZAROVA

KO'KLAMOYNING IN'OMLARI

ISMALOQ

Oziq moddalarga boyligi jihatidan oshko'klar ichida ismaloq birinchi o'rinda turadi. Bu o'simlik A, V₁, V₂, V₅, V₆, V₉ vitaminlari, jumladan, temir, magniy, fosfor, aminokislotalar va efir moylariga boy bo'lgani uchun organizmni ortiqcha shlaklardan tozalaydi. Ichak va qon tomirlarini kengaytiradi.



KO'K PIYOZ

Barragina ko'kpiyoz inson organizmiga foydasi juda katta. Ko'kpiyoz ovqat hazm qilishni yaxshilaydi. Tarkibida temir, kaliy, kalsiy, mis, natriy, rux va fosfor borligi uchun ko'p iste'mol qilishni tavsiya qilamiz. Qolaversa, u insonlarni yuqumli kasalliklardan himoya qiladi.



YALPIZ

Tabiat in'omi bo'lgan yalpiz ham o'zining vitaminlarga boyligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Onajoningiz sizga ko'k somsa, ko'k chuchvara tayyorlab bersalar, albatta, uni yalpiz solmasdan tayyorlamaydi. Chunki yalpiz taomga o'zgacha maza beradi. Undan qariyalarimiz tanani tinchlantiruvchi vosita sifatida ham qo'llashadi. Yalpizni ko'zlariga surtib, «Omonlik somonlik, hech ko'rmaylik yomonlik», deya to'yib-to'yib hidlashadi. Uning tarkibida ham marganets, mis, natriy, rux, fosfor kabi mikroelementlar mavjud.



Manzura UBAYDULLAYEVA tayyorladi

ILOHI, HAR KUNING NAVRO'Z BO'LSIN, HAMISHA TOLEING FERUZ BO'LSIN!

Mustaqil O'zbekistonimizda Navro'z bayrami har yili katta tantana bilan nishonlanadi. Ayyom arafasida umumxalq hasharlari o'tkaziladi, nogironlar, muhtojlar, keksalar va bemorlar qadrlanib, ular holidan xabar olinadi.

Respublikamizning barcha umumta'lim maktablarida ham

Navro'z ayyomiga bag'ishlanib «Yashil belbog'lar» xayriya aksiyasi, «Xush kelding, Navro'z!» deb nomlangan tadbirlar o'tkazilmoqda. Unda o'quvchilar ustozlari boshchiligida maktablaridagi yer maydonchalarini obodonlashtirishga o'z hissalarini qo'shmoqda.

Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Mohiraxon Qodirova rahbarlik qilayotgan 26-umumta'lim maktabi o'quvchilari «Obod muassasam» nomi bilan o'tkazilgan xayriya hasharida maktab hududidagi yer maydonchalariga 100 tup nok daraxti ekib, archa va ko'chatlarga shakl berishda faol ishtirok etdi.



Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabida EKO haftalikda o'quvchilar ota-onalari bilan birgalikda daraxt ko'chatlari ekib, maktab hovlisini bog'ga aylantirishdi.



Toshkent viloyatining Parkent tumanidagi 35-umumta'lim maktabining 3-«A» sinf o'quvchilari ustози Nozima O'tasheva bilan hasharda faol qatnashdi.



Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 22-umumta'lim maktabi o'quvchilari ustoz Gulbahor Zafarova bilan gullar mozaikasini uyg'unlashtirishdagi harakati barchaning e'tirofiga sazovor bo'ldi.

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

1 Barq urgan ekin	2 Suv yo'li	3 Olam, dunyo	4 Quruq meva	5 Daraxt «onasi»	6 Inson, odam-zod	7 Navro'z oyi	8 Navro'z taomi
9 Sayro-qush	10 Subhidam	11 Yoqimli shamol	12 Yangi o'to'lan	13 Pollz ekini	14 Ixtiyoriy omma mehnati	15 Hamalning belgisi	16 Samo, ko'k
17 Rohat, huzur	18 Yil fasli	NAVRO'ZI OLAM				19 Qo'shiq turi	20 Shon, olqish
21 Yerosti suv manbai	22 Nordon o'simlik	23 Qovun yetiladigan joy	24 Qizil gul	25 Ufqdagi qizillik	26 Afsosnaviy qush	27 Shirinlik turi	28 Qo'shiq turi
29 Suv jivori	30 Muborakbod	31 Bahor guli	32 Gullamas meva	33 Havodan ungan tomchi	34 Poliz ekini	35 Baxtli kelajak	36 Katta varrak
37 Bug'doy to'p guli	38 Yosh daraxt	39 Ov qushi	40 Dehqonchilik ekini				

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

NARGIZA tayyorladi



Pazanda qizga!

Bilasizlarmi, aziz kichik bekalar, ayrimlar kechki ovqat paytida qornini to'ydirib, keyin uxlashga yotadi. Bu inson organizmiga juda zararli. Avvalo, oshqozon o'ziga «og'irlik qiladigan» taomni hazm qilishga qiynaladi. Bu esa oshqozon-ichak yo'llarida kasalliklarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bugun sizlarga tavsiya qiladigan taomimiz tushlikka tayyorlansa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

QIYMALI DO'LMACHALAR

Buning uchun bizga: 800 gramm mol go'shti qiymasi, 1 dona piyoz, 1 dona tuxum, 3 bo'lak non, 300 gramm oq qo'ziqorin, yarim bog' ko'kat, 100 gramm qattiq pishloq, ta'bga ko'ra tuz, murch kerak bo'ladi.



Ish avvalida chuqurroq idishga qiymani solib, ustiga qirg'ichdan chiqarilgan piyoz, tuxum, sutda bo'ktirilgan non bo'laklarini maydalab, tuz, murch solib aralashirasiz. Tovaga yog' solib, qo'ziqorinlarni maydalab to'g'raysiz va ko'katlar solib, yog'da qovurasiz. Gaz patnisini yog'lab qiymani dumaloqlab terib chiqasiz. Ustidan stakan bilan asta bosib, hosil bo'lgan chuqurchaga qo'ziqorinli aralashmani solasiz. Ustiga pishloqni qirg'ichdan chiqarasiz va 20 daqiqaga qizdirilgan gaz pechiga qo'yasiz. Tayyor bo'lgan taomga istasangiz garnir sifatida qovurilgan kartoshka yoki qaynatilgan guruch, grechka tayyorlashingiz mumkin.

Yoqimli ishtaha!

Tong yulduzi

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV, Dilshod KENJAYEV, Murtazo SULTONOV, Feruza JALILOVA, Ashurali JO'RAYEV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga bosmaxona mas'ul. Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz Adadi - 14693 Buyurtma - V 3221

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti - 18:00 Topshirildi - 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08